



ILK YOSHDAGI BOLALAR NUTQINI TO'G'RI RIVOJLANTIRISHDAGI SHART- SHAROITLAR – TARBIYAVIY TA'SIRNING ASOSIY SHAKLIDIR

Qosimova Mohinur Maxmudjonovna

Farg'ona viloyati Uchko'prik tumani 11-DMTT uslubchisi

Annotatsiya: *Ilk yoshdagi bola nutqining o'z vaqtida va to'g'ri rivojlanishi aqliy rivojlanishining asosidir. Nutq orqali bola bilan kattalar, tengdoshlari o'rtasida turli munosabatlar o'rnatiladi. Yaxshi rivojlangan nutq ruhiy jarayonlarning rivojlanishiga, bolalarning maktabgacha va undan keying davridagi faoliyatlariga katta ta'sir ko'rsatadi. Bolalar nutqining rivojlanishida kattalar nutqining tarbiya vositasi sifatidagi o'rni muhim ahamiyatga ega.*

Kalit so'zlar: *fiziologik, markaziy nerv sistemasi, ruhiy jarayon, tarbiya vositasi, fikr yuritish operatsiyalari, grammatik so'zlar, psixik xayot.*

Hozirgi vaqtda bolalar bog'chasidan tortib barcha ta'lim muassasalarida pedagogik texnologiyalar va yangi dasturlar asosida ishlay oladigan o'qituvchi zarur bo'lmoqda. U pedagogik jarayonning ijodkori bo'lishi, moslashuvchan fikrlashga ega bo'lishi, pedagogik texnologiyalardan mohirona foydalanishi lozim. "Hozirgi zamon o'qituvchisining asosiy fazilatlaridan biri o'z kasbiga sadoqatliligi, g'oyaviy e'tiqodliligi, o'z kasbini sevishi, bu kasbga bo'lgan cheksiz sadoqat o'qituvchini boshqa kasb egalaridan ajratib turadi. O'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan muhim talablardan biri shuki, u o'zi o'qitayotgan predmetlarni chuqur bilishi, uning metodikasini o'zlashtirib olgan bo'lishi zarur"[1].

Har bir jamiyatning taraqqiyoti millat yoshlarini milliy ruhda tarbiyalash, ularni milliy qadriyatlarga asoslangan ijtimoiy hayot, turmush tarziga qay darajada samarali tayyorlanishiga bog'liq. Shu sababli asrlar davomida har bir millat, xalq o'z milliy qadriyatlari negizida yosh avlod tarbiyasini tashkil etishga oid qarashlarni shakllantirib kelgan. Milliy yondashuv asosida tarbiya jarayonini tashkil etish natijasida yoshlar milliy mentalitet xususiyatlarini o'zida namoyon etuvchi sifatlarga ega bo'lganlar.

"Jamiyatimizdagi madaniy, iqtisodiy va ma'naviy sohalardagi hozirgi rivojlanish jarayonida ta'lim-tarbiya sohasida o'quvchilarning muloqot madaniyatini shakllantirish muammosi, ya'ni maqsadga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirish borasidagi izlanishlar katta ahamiyatga ega bo'lib, bu muammo ko'pchilik tadqiqotchilarning e'tiborini o'ziga jalb etmoqda"[2].

Ilk yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish masalasi pedagogikaning asosiy masalalaridan biri hisoblanadi.

Bola hayotining birinchi yili eng mas'uliyatli davr bo'lib, bu davrda bola nutqida katta o'zgarishlar sodir bo'ladi. Bu o'zgarishlar bolaning umumiy rivojlanishida namoyon bo'ladi.





Nutq bolada ilk yoshdanoq shakllana boshlaydi. Bu davrda egallangan nutq bolaning kelgusida ona tilini mukammal egallashida asosiy zamin bo'lib xizmat qiladi. Bola tug'ilishi bilan atrofdagilar bilan nutqiy munosabatga kirishadi, bu munosabat orqali o'zidagi hamma kuch va qobiliyatni rivojlantiradi.

Ilk yoshdagi davr bolaning jismoniy va ruhiy tomondan tezkorlik bilan rivojlanish bosqichi hisoblanadi. Bu yoshda markaziy nerv sistemasining rivojlanishida sezilarli o'zgarishlar sodir bo'ladi va miya fiziologik jihatdan yetilib bo'ladi.

Masalan, 7 oylikda bolaning miyasi ikki baravar, bir yoshida uch baravar o'sadi. 2 yoshida esa katta yoshdagi kishilar miya og'iligining 70 foizini tashkil etadi.

Bola ikki yoshli davrida aniq harakatlarni shakllantirish uchun javobgar bo'lgan markaziy nerv sistemasining bo'limi – miyacha 5 baravar, xotira, tafakkur, nutq va hayol kabi ruhiy jarayonlar hamda ixtiyoriy harakatning rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan bosh miya po'stlog'ining maydoni esa 2,5 baravar kattalashadi.

Fiziologlarning ilmiy nazariyalariga ko'ra, markaziy nerv sistemasining funksiyalari ularning tabiiy ravishda shakllanish davrida mashq qilish va tarbiyalanishga yengillik bilan moyillik bildiradi.

Bolaning uch yoshgacha bo'lgan davri uning nutqi, tafakkuri va bilish faoliyatining rivojlanishi uchun eng qulay bosqich hisoblanadi.

Bu davrga kelib miyaning nutq bo'limi anatomik tomondan yetilib bo'ladi, bola ona tilining asosiy grammatik shakllarini egallaydi, ko'p so'z to'plamiga ega bo'ladi. Ilk yoshdagi bola nutqining o'z vaqtida va to'g'ri rivojlanishi aqliy rivojlanishining asosidir. Nutq vositasida bola bilan kattalar o'rtasida turli munosabatlar o'rnatiladi. Yaxshi rivojlangan nutq ruhiy jarayonlarning rivojlanishiga, bolalarning maktabgacha davrida va undan keying davridagi faoliyatlariga katta ta'sir ko'rsatadi. Bolalar nutqining rivojlanishi bilan kattalar nutqining tarbiya vositasi sifatidagi roli ortib boradi.

Nutqning yetarlicha rivojlanmaganligi bolalarni shaxs sifatida har tomonlama barkamol inson bo'lib yetishishlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi, ya'ni barcha ruhiy jarayonlar – idrok, xotira, diqqat, fikr yuritish operatsiyalari, xayol rivojlanishdan orqada qoladi, ularga aqliy, axloqiy, estetik, jismoniy, mehnat tarbiyasini berish imkoniyatlari chegaralanadi.

Bola nutqini ilk yoshdan boshlab to'ri rivojlantirishda kattalarning bola bilan yaqindan munosabatda bo'lib, qulay shart-sharoitlar yaratishlari nutqni o'z vaqtida o'stirish imkonini beradigan tarbiyaviy ta'sirning asosiy shaklidir.

Bolalarning tug'ilganidan keyin bir yoshgacha bo'lgan davri nisbatan kam harakat va „nutqsiz“ taraqqiyot davridir. Bu davrda bola nutqining o'sishi va taraqqiyoti oila sharoitga tarbiyaga bog'liq bo'ladi. Shu bilan bir qatorda bu davr har jihatdan nutqning juda ildam rivojlanish davridir.

Bola hayotining birinchi yilida bolaning har tomonlama tarbiyasiga katta ahamiyat berishda quyidagilarni amalga oshirish lozim: ko'ruv, eshituv organlari,





sezish taassurotlarini, emotsional his tuyg'ularini: bolaning jilmayishi, kulishi, narsa buyumlar bilan harakat qilishini shakllantirish.

Bola nutqining taraqqiyoti 3 ta asosiy davrga bo'linadi. Birinchi davr nutqni o'zlashtirishdan oldingi davr bo'lib, mazkur davr bolaning 2 oylik davridan taxminan 11 oylik davriga to'g'ri keladi. Ikkinchi davr tilni dastlabki o'zlashtirish davri bo'lib, 11oylikda taxminan 1yoshu 7oylik davrgacha davom etadi. Uchinchi davrni tilning grammatik tuzilishini o'zlashtirish davri deb atash mumkin. Bu davr bolaning bir yoshu 7oyligidan 3 yoshgacha davom etadi. Bu davrda bolaning so'z boyligini ortishi va foydalanadigan grammatik so'zlari ko'payishi yaqqol namoyon bo'ladi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, odamning bugun psixik xayotida til, nutq faoliyati juda katta ahamiyatga ega. Moxiyat jixatdan olganda, inson onggi, asosan, til bilan uzviy bog'liqdir. Til tafakkur bilan ayniqsa mustaxkam bog'liqdir.

Xulosa.

Ilk yoshdagi bola nutqining o'z vaqtida va to'g'ri rivojlanishi aqliy rivojlanishining asosidir. Nutq vositasida bola bilan kattalar o'rtasida turli munosabatlar o'rnatiladi. Yaxshi rivojlangan nutq ruhiy jarayonlarning rivojlanishiga, bolalarning bog'cha davridagi va undan keying davridagi faoliyatlariga katta ta'sir ko'rsatadi. Bolalar nutqining rivojlanishi bilan kattalar nutqining tarbiya vositasi sifatidagi roli ortib boradi.

Aksincha, bolaning bog'cha yoshgacha bo'lgan davrida nutqning rivojlanishiga ota-ona va tarbiyachining yetarlicha ahamiyat bermaganligi, unga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatmaganligi natijasida bolalar bog'cha yoshida (3-4 yoshda) ham nutqni yaxshi egallay olmaydilar. Bolalar nutqni ancha kechikib egallashlari sababli, ularning nutqida so'zlar miqdori yetishmaydi, grammatik xatolar, talaffuzida nuqsonlar juda ko'p bo'ladi. Buning oqibatida bola o'z fikrini boshqalarga bildirishga qiynaladi, atrofdagilar bilan muomala qilish imkoniyatlari cheklanadi. Natijada tarbiyachilar, ota-onalar nutq vositasida bolalarga ta'lim-tarbiya berish imkoniyatlaridan foydalana olmaydilar. Shuningdek, nutqning yetarlicha rivojlanmaganligi bolalarni shaxs sifatida har tomonlama barkamol inson bo'lib yetishishlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi, ya'ni barcha ruhiy jarayonlar – idrok, xotira, diqqat, fikr yuritish, xayol rivojlanishdan orqada qoladi, ularga aqliy, axloqiy, estetik, jismoniy, mehnat tarbiyasini berish imkoniyatlari chegaralanadi. Bola nutqini ilk yoshdan boshlab to'laqonli o'stirish sohasida olib borilgan izlanishlar natijalariga ko'ra, kattalarning bola bilan yaqindan munosabatda bo'lib, qulay shart-sharoitlar yaratishlari nutqni o'z vaqtida o'stirish imkonini beradigan tarbiyaviy ta'sirning asosiy shaklidir.





ADABIYOTLAR:

1. R.Mavlonova, O.To'rayeva, K.Xoliqberdiyev. *Pedagogika. Darslik. T.*, 2018 yil, 40-bet.
2. Tanjaripova Sh. Kollej o'quvchilarida muloqot madaniyatini shakllantirish omillari xususida. Boshlang'ich ta'limda integratsiyaviy – innovatsion yondashuvlar. Respublika konferensiyasi. 2019 yil, 165-bet
3. Арипов, З., & Сайдумарова, М. (2021). Zamonaviy o'qitish metodlari orqali iqtidorli o'quvchilarni tarbiylash va rivojlantirish. *Общество и инновации*, 2(12/S), 86-92.
4. Арипов, З. Т. (2020). ПРОЦЕСС ФОРМИРОВАНИЯ КОММУНИКАТИВНО-РЕЧЕВОЙ ГОТОВНОСТИ СТАРШИХ ДОШКОЛЬНИКОВ К ОБУЧЕНИЮ. In *ПРОБЛЕМЫ ФИЛОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ* (pp. 108-112).
5. Ботирова, Н. (2020). Обучающие возможности тестовых технологий. *Профессиональное образование и общество*, (3), 68-71.
6. Toirjonovich, A. Z. (2022). BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 2(Special Issue 2), 92-96.
7. Jabborova, M. (2021). THE IMPORTANCE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN THE SOCIAL DEVELOPMENT OF SOCIETY. *Экономика и социум*, (6-1), 129-132.
8. Jabborova, M. (2022). BO'LAJAK PEDAGOGLARNI TAYYORLASH TIZIMIDA MALAKAVIY AMALIYOTNING ROLI. *Scientific progress*, 3(4), 167-173.
9. Kodiraliyevna, J. M. (2022). TARBIYACHI KASBINING MA'NAVIY AXLOQIY NEGIZLARI. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 2(Special Issue 2), 64-70.
10. Zhabborova, M. R. K. (2021). Мактабгача таълим соҳаси талабаларида бошқарувчанлик қобилиятларини ривожлантириш. *Молодой ученый*, (17), 394-395.
11. Ashurova, O. (2021, December). THE IMPORTANCE OF AESTHETICITY OF ECOLOGICAL CONSCIOUSNESS AND CULTURE IN THE ACTIVITIES OF PRESCHOOL EDUCATIONAL PROFESSIONALS. In *International Scientific and Current Research Conferences* (pp. 88-90).
12. Anvarjonovna, A. O. (2021). Factors for the Development of Ecoesthetic Culture of Future Preschool Educational Professionals. *European Journal of Humanities and Educational Advancements*, 2(5), 162-164.
13. Anvarjonovna, A. O. (2021, December). Methodological Foundations for Development of Aesthetic Culture Teacher of Preschool Education. In *INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY RESEARCH AND INNOVATIVE TECHNOLOGIES* (Vol. 2, pp. 254-258).
14. Alimjanova, M. (2020). PEDAGOGICAL SYSTEM OF FORMATION OF RESPONSIBILITY IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS ON THE BASIS OF NATIONAL VALUES. *Theoretical & Applied Science*, (4), 914-917.

